



Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish

Sidiqova Yulduz Sobirovna

Osiyo Xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

tel:+998914164032

yulduzsobirova048@jmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirish maqsadi, ekologik bilimlarni shakllantirish jarayonida foydalanishi mumkin bo‘lgan uslublar tahlil qilingan.

Калит сўз: Tabiat, ekologiya, ekologik tarbiya, didaktik o‘yinlar, jonli va jonsiz tabiat.

Аннотация: В данной статье анализируются цели формирования экологических представлений у детей, методы, которые можно использовать в процессе формирования экологических знаний.

Ключевые слова: Природа, экология, экологическое образование, дидактические игры, живая и неживая природа.

Abstract: This article analyzes the goals of forming environmental ideas in children, methods that can be used in the process of forming environmental knowledge.

Key words: Nature, ecology, environmental education, didactic games, living and inanimate nature.



Tabiatni onaga qiyoslaymiz. Ona tabiat deb ataymiz. Ona tabiat- o‘simliklar dunyosi, hayvonot olami maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologik tushunchalarni , ekologik ongini, ekologik madaniyatni shakllanishida, tabiatda bo‘ladigan voqea-hodisalarning sir-asrorini o‘rganib voyaga yetishida kattava muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning eng asosiy vazifalari tabiatni sevish, e‘zozlash va avaylab-asrashni, tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishni o‘rgatishdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishni asosiy maqsadi bu- tabiatni sevishga, avaylashga, asrashga, ehtiyotkorlik munosabatida bo‘lishga o‘rgatishdir. Tabiatni asrash- vatanni asrash demakdir. Bu muhim vazifani amalga oshirish bolalarda erta yoshlikdan maktabgacha ta’lim yoshidan shakllantiriladi. Tabiatga to‘g‘ri munosabat qilish, tabiatni sevish, asrab avaylashga o‘rgatish - bu ekologik ta’lim va tarbiya berishning bosh maqsadi bo‘lib hisoblanadi. Bolalar tabiat haqidagi ilk tushunchalarni, bilimlarni egallab olib o‘simliklarni o‘stirish, hayvonlarni parvarishlash, tabiatni kuzatish va tabiatga muhabbatni oshirishni o‘rganib boradilar. Tabiatning faol himoyachilarini tarbiyalash uchun maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar bilan quyidagi ekologiyaning vazifalarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bularga:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiatda bo‘ladigan fasllar almashinuvi, tabiatda bo‘ladigan hodisalar bilan tanishtirish, tabiat hodisalari o‘rtasida bog‘liqlik to‘g‘risida belgilangan hajmdagi bilimlar berish.
2. Bolalarda tabiatni asrab avaylash uni boyitishga oid faoliyatni shakllantirish.
3. Atrof-muhitni muhofaza qilishda tashabbuskorlikni uyg‘otish.
4. Bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish.



Yuqorida ko'rsatilgan asosiy vazifalarga har doim amal qilib borilsa yaxshi natijalar berishi mumkin. Buni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, mashg'ulotlarda, o'yinlarda, kuzatishlarda, ekskursiyalarda, maqsadli sayrlarda, mehnat faoliyatlarida, oddiy tajribalarda texnik vositalardan va turli hil metod-usullaridan foydalangan holda tashkil etilsa, yaxshi samara beradi. Bunga maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachilari va ota-onalar mas'uldirlar. Har doim muntazam ravishda olib boriladigan ishlar bolalarda tabiatga bo'lgan qiziqishlarini va uni e'zozlashga, asrashga, ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatib boradi. Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o'z o'lkasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga hisobga olishi kerak. Ekologik ta'lim va tarbiya berish jarayonida quyidagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiradi.

Kuzatish uslubi. Turli yosh guruhlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi kuzatishdan keng foydalanadi. Kuzatish uslubi — tabiat jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan va bevosita shu hodisalarning borishiga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qilib olishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etib, barqaror diqqat talab etiladi

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o'stirishda katta ahamiyatga egadir. Kuzatishlar davomiyligi va xarakteri bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. O'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning shakllanishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi. Bunda bolalarning obyektning kuzatilayotgan holatini ilgariyasi bilan qiyoslashlariga to'g'ri keladi.

Kuzatish narsalarning ayrim belgilariga qarab holatlarini aniqlash (masalan, gulning bargiga qarab uni sug'orish, akvariumdagi suvning holatiga qarab suvni almashtirish, yoki qordagi izga qarab qaysi qushning izi ekanligi, mevalarning pishgan yoki xomligini rangiga



qarab ajratish) maqsadida ham tashkil etiladi. Qisqa muddatli kuzatish jarayonida bolalar narsalarning shakli, rangi, katta-kichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvi, sathining xarakterini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri, ularning chiqaradigan tovushlarini o'rganadilar. Bu kuzatish turiga masalan, qushlarning sayrashini tinglash, qor yoki yomg'ir yog'ishi, kamalakning hosil bo'lishi kabi holatlarni kuzatish kiradi. Barcha hollarda kuzatish bolalarning yuksak aqliy faoliyatini rivojlantirishi, ularni fikrlashga, berilgan savollarga javob topishga undashi, shuningdek, ulardagi qiziqishlarni rivojlantirishi va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalashi lozim. Didaktik o'yinlar. Biz bilamizki, didaktik o'yinlarda maqsad bo'ladi, natija bo'ladi. Didaktik o'yinlarda bolalar o'zlarida tabiatdagi narsa va hodisalar, hayvonlar va o'simliklar haqida mavjud bo'lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko'pgina o'yinlar bolalarni umumlashtirish hamda turkumlashga o'rgatadi. Didaktik o'yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o'sishiga yordam beradi, yangi sharoitlarda bolalarni mavjud bilimlaridan foydalanishga o'rgatadi, turli aqliy jarayonlarni faollashtiradi, lug'atni boyitadi, bolalarda birgalikda o'ynash ko'nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda predmetli, stol-bosma va og'zaki didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Ijodiy o'yinlar ham bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Ijodiy o'yin turlaridan biri – tabiiy materiallar: qum, loy, mayda toshchalar bilan o'ynaladigan o'yinlardir. Materiallar yordamida bolalar ijodiy o'yinlar tashkil qilar ekanlar qilar ekanlar, ularning xususiyatlari va sifatlarini bilib oladilar. Har bir yosh guruhda yilning fasliga mos tabiiy material bilan o'ynash uchun sharoit yaratiladi. Masalan yozgi sog'lomlashtirish davrida bolalar ko'proq loy bilan, mayda toshchalar bilan o'ynaydilar qumning, tuproqning xususiyatlari bilan tarbiyachining bevosita rahbarligida tanishadilar va tarbiyachi rahbarligida o'yinlar tashkil qiladilar.

Og'zaki uslub- tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbatlar orqali amalga oshiriladi. Badiiy asarlarni yoki ertaklarni o'qib berish jarayonida tarbiyachi bolalarni tabiat



hodisalari bilan tanishtirishi mumkin. Yoki tabiat manzaralari aks etgan ertak yoki hikoya bo'lishi mumkin. Tarbiychi badiiy asarlarni o'qib berish jarayonida bolalarni tabiatdagi go'zallikni anglashga tabiatni sevishtirishga o'rgatib boradi. Bundan tashqari tarbiyachi bolalar bilan ertalabki davrdagi suhbatlar jarayonida bolalardan o'lkamizda qaysi fasl ekanligini, fasllarda ro'y beradigan tabiatdagi o'zgarishlar haqidagi tushunchalarni shakllantiradi. Kundalik bo'ladigan suhbatlar jarayonlarida bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish mumkin. Oddiygina guruh xonasini toza saqlashni o'rgatish ham bolalarda ekologik madaniyatni shakllanishiga olib keladi. Suhbat olib borar ekan tarbiyachi suhbatning didaktik maqsadini aniq tasavvur qilishi ya'ni, uning mazmunini aniqlashi, umumlashtirishi hamda muhim tomonlarini ajratib, suhbat yakunida aniq bir xulosa chiqara olishi lozim. Suhbatlar jarayonida tarbiyachi hodisa, faktlarni analiz qilsa, ularning xususiyatlari, belgilari, o'rtasidagi muhim aloqa hamda munosabatlarni ta'kidlasagina suhbat samarali ahamiyat kasb etadi.

Biz bolalarni jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalari, yilning turli fasllari bilan tanishtiramiz. Bolalarning jonli va jonsiz tabiat haqidagi, tabiatdagi hodisalar, o'simlik va hayvonlar, inson mehnati haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish hamda boyitish, shuningdek, tabiat burchgidagi gullarni parvarish qilish, hayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddiy ko'nikmalarni hosil qilish, ta'lim berishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, taffakkur va nutq rivojlanadi, so'z boyligi ortadi, yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Yuqorida aytilganidek, tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga Yer, Quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o'smaydi, ko'paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas.

Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o'sadilar va ko'payadilar. Jonli tabiat vakillari o'simlik, havo, suv, yorug'lik, issiqlik va ozuqa bo'lmasa yashay



olmaydi. Bunday tushunchalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar jarayonida, markazlardagi faoliyatlarda, sayrlarda shakllantiriladi. Tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirishda "Fan va tabiat" markazida tashkil etiladigan markazlardagi faoliyatlarning ahamiyati juda katta. Markaz faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilsa bolalalarda tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirishda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tabiat haqida bilim berishda tarbiyachining o'ri juda kattadir. Bunda tarbiyachining bilim doirasining kengligi muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachining bilimi barcha dunyoviy ma'lumotlarga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun tarbiyachilardan yuksak mahoratlar talab etiladi. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini o'tkazishda, sayr va ekskursiyalarni tashkil etishda tarbiyachining oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Tabiat va tabiat hodisalari haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish.
2. O'simliklar, hayvonlar, hashorotlar, qushlar, baliqlar umuman tabiatdagi jonli va jonsiz tabiat haqidagi umumiy ma'lumotga ega bo'lish.
3. O'simliklar, hayvonlar, hasharotlar, qushlar va baliqlarni parvarish qilish, oziqlantirishga qo'yiladigan talablarni, xona gullarini parvarish qilishni, terrariumda hayvonlarni saqlash haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishi lozim.
4. Tanlanayotgan ma'lumotlar bolaning yoshiga mos bo'lishi kerak.
5. Hayvonlar bilan ehtiyotkorlik munosabatda bo'lishni bilishlari va bolalarga to'g'ri o'rgata olishlari lozim .



Uzluksiz ta'lim ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida intellektual salohiyatga ega insonlarning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qiladi. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'analariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020 yil 22 dekabrda 802-sonli qaroriga 1-ilova Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti.
2. O.Hasanboeva, X.Djabborova va boshqalar. "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi". "CHo'lpon", 2009 y.
3. P.Yusupova "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish" –T.: "O'qituvchi", 1995 y.
4. Sodiqova Sh.A.- "Maktabgacha pedagogika." – T, 2018
5. Ismoilov A., Ahadov R. Ekologik ta'lim-tarbiya. – T.: "O'qituvchi", 1997.
6. Grigoryans A.G., Gafurova U. Bolalar bog'chasida ekologik tarbiya. – T.: "O'qituvchi", 2002.
7. Umarova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish metodlar.